



SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


SAMARQAND VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

2023-yil
yanvar-may



Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.



Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

¹⁾ Shu va keyingi o'rinlarda 2019-2022-yillar ko'rsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq qayta ko'rib chiqilgan



Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023-yil yanvar-may)

Hududlar	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, %	O'sish sur'ati, %
Samarqand viloyati	10 835,7	100,0	111,0
Samarqand sh.	4 714,8	43,5	111,2
Kattaqo'rg'on sh.	240,7	2,2	109,3
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	331,3	3,1	108,9
Bulung'ur	293,0	2,7	110,9
Jomboy	449,5	4,2	109,6
Ishtixon	377,7	3,5	108,5
Kattaqo'rg'on	393,9	3,6	108,6
Qo'shrabot	213,0	2,0	109,1
Narpay	355,2	3,3	109,3
Payariq	384,0	3,5	109,7
Pastdarg'om	663,3	6,1	108,6
Paxtachi	237,9	2,2	108,8
Samarqand	805,5	7,4	117,1
Nurobod	208,2	1,9	108,9
Urgut	700,4	6,5	110,3
Toyloq	467,3	4,3	115,5

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar narxini aks ettiradi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

(2019-2023-yillar yanvar-may)



2023-yil yanvar-may oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2 624,9** ming so'mga yetdi. **2022-yilning yanvar-may** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **108,6** % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar

(2023-yil yanvar-may)

	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati, %
Samarqand viloyati	2 624,9	108,6
Samarqand sh.	8 209,6	109,1
Kattaqo'rg'on sh.	2 568,8	107,5
Oqdaryo	1 953,7	106,3
Bulung'ur	1 479,8	108,6
Jomboy	2 424,4	106,9
Ishtixon	1 394,8	106,2
Kattaqo'rg'on	1 365,2	106,4
Qo'shrabot	1 527,7	107,0
Narpay	1 587,4	107,2
Payariq	1 434,9	107,0
Pastdarg'om	1 765,1	106,4
Paxtachi	1 583,8	107,3
Samarqand	3 006,7	114,6
Nurobod	1 303,8	106,7
Urgut	1 280,2	107,7
Toyloq	2 160,3	112,7

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq bo'lgan qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) Statistik tasniflagichi (MST) ga ko'ra muvofiqlashtirildi.

Hududlar	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, %	O'sish sur'ati, %
Xizmatlar – jami	10 835,7	100,0	111,0
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	519,5	4,8	124,5
Moliyaviy xizmatlar	1 788,2	16,5	117,2
Transport xizmatlari	2 526,5	23,3	104,9
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	2 316,1	21,4	106,4
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	561,0	5,2	120,6
Savdo xizmatlari	2 830,1	26,1	106,9
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	259,2	2,4	110,7
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	552,5	5,1	133,4
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	205,6	1,9	100,9
Ijara xizmatlari	295,2	2,7	109,7
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	312,7	2,9	108,0
Shaxsiy xizmatlar	490,9	4,5	107,4
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	173,4	1,6	109,0
Boshqa xizmatlar	320,9	3,0	111,3




2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan 2023-yilning mos davrida moliyaviy xizmatlar hajmi 1 195,6 mlrd. so'mga oshib, 1 788,2 mlrd. so'mga yetdi. Jami xizmatlar hajmida moliyaviy xizmatlarning ulushi 16,5 foizni tashkil etdi. Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 117,2 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi


(2023-yil yanvar-may)

2023-yilning yanvar-may oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari xizmatlarning ulushi 92,5 % ni tashkil etdi.



Transport xizmatlari (2019-2023-yillar yanvar-may)


2023-yilning yanvar-may oylarida transport xizmatlari hajmi 2 526,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan ushbu xizmat turining o'sish sur'ati 104,9 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 23,3 % ni tashkil etdi.




Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

2023-yilning 1-iyun holatiga ko'ra, asosiy faoliyat turi tashish va saqlash bilan bog'liq bo'lib, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 1 010 birlikni, yoki ularning umumiy sonining 2,3 % ni tashkil etdi.

Transport xizmatlarining turlari bo'yicha tarkibi (2023-yil yanvar-may)



Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi (91,7 %).



2022-yil yanvar-may oylariga nisbatan ushbu xizmatlarning o'sish sur'ati **106,4 %** ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **21,4 %** ni tashkil etdi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.


2023-yilning yanvar-may oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2 316,1** mlrd. so'mga yetdi.



Avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi

Avtotomobil transporti xizmatlarining umumiy hajmida yo'lovchilarni tashish xizmatlari ustunlik qiladi (**71,5 %**).

Taqqoslash uchun: 2022-yilning yanvar-may oylarida ushbu ko'rsatkich **71,9 %** ni tashkil etgan.




Savdo xizmatlari

(2019-2023-yillar yanvar-may)

2019-yilning yanvar-may oylariga nisbatan **2023-yilning yanvar-may** oylarida savdo xizmatlari hajmi **1 452,2** mlrd. so'mga oshib, **2 830,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-may oylariga nisbatan ushbu xizmat turi bo'yicha o'sish sur'ati **106,9 %** ga yetdi.



Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlarini orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlarini uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.




2023-yilning 1-iyun holatiga ko'ra xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida savdo faoliyati bilan band bo'lganlarning ulushi **37,6 %** yoki **16 306** birlik bilan ustunlik qiladi.






2023-yil yanvar-may oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli to'rttdan uch qismini, ya'ni **75,0 %** ni tashkil etdi.



Ulgurji savdo xizmatlari, avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari xizmatlar



Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar




Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda xizmatlar



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

(2019-2023-yillar yanvar-may)



2023-yilning yanvar-may oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **519,5** mlrd. so'mdan iborat bo'lib, **o'tgan yilning mos davriga** nisbatan o'sish sur'ati **124,5 %** ni tashkil etdi.




Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.


2023-yilning 1-iyun holatiga ko'ra "Axborot va aloqa" faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar soni **620** birlikka yetdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

(2023-yil yanvar-may)



Ta'lim sohasidagi xizmatlar (2019-2023-yillar yanvar-may)



2023-yil yanvar-may oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **552,5** mlrd. so'mga yetdi. **O'tgan yilning mos davriga** nisbatan o'sish sur'ati **133,4** % ni tashkil etdi.



“Ta'lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.


Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

Ta'lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.





2023-yil yanvar-may oylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **205,6** mlrd. so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **1,9** % ni tashkil etdi.




Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

2023-yilning 1-iyun holatiga ko'ra sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasi xizmatlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **974** birlikni tashkil etdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2019-2023-yillar yanvar-may)

2019-yilning yanvar-may oylariga nisbatan 2023-yilning ushbu oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning hajmi **375,2** mlrd. so'mga oshib, **561,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.


Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

2023-yilning 1-iyun holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **3 420** birlikni tashkil etgan.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi
(2023-yil yanvar-may)



2023-yilning yanvar-may oylarida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi **259,2** mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **2,4** % ni tashkil etdi. **2022-yilning yanvar-may** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **110,7** % ni tashkil etgan.



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Me'morchilik sohasidagi xizmatlar (2019-2023-yillar yanvar-may)


2023-yilning yanvar-may oylarida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **173,4** mlrd. so'mga yetdi.

Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi esa **1,6** % ni tashkil etdi.
2022-yilning yanvar-may oylariga nisbatan o'sish sur'ati **109,0** % ni tashkil etdi.



Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.


Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (2019-2023-yillar yanvar-may)



2023-yilning yanvar-may oylarida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi 312,7 mlrd. so'm miqdorida qayd etilib, 2022-yilga nisbatan o'sish sur'ati 108,0 % ni tashkil etdi.



Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining tarkibi (2023-yil yanvar-may)




Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish, kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Ijara xizmatlari

(2019-2023-yillar yanvar-may)

2019-yilning yanvar-mayiga nisbatan o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi **145,4** mlrd. so'mga oshib, **295,2** mlrd. so'mga yetdi. Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi **2,7 %** ni tashkil etdi.



Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi milliy daromadning o'sishiga yordam beradi, aholining munosib hayot sifatini ta'minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi ishchilarning mehnat unumdorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejashga yordam beradi va bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.

